ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

USTOZLIKDAN YOSHLAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA DIREKTOR O‘RINBOSARLIGIGACHA: BIR DARGOHDAGI QARIYB 20 YILLIK HAYOT YO‘LIM

Musajonov Qobiljon Rafiqovich
Uchko‘prik tumani 1-son texnikumi
Yoshlar masalalari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24072288

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallifning qariyb yigirma yillik pedagogik faoliyati, o‘qituvchilikdan guruh rahbarligi va kafedra mudirligigacha, undan yoshlar masalalari bo‘yicha direktor o‘rinbosarligigacha bo‘lgan kasbiy yo‘li yoritilgan. Maqolada yoshlar bilan ishlash tajribasi, ularning qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash, individual yondashuv, ishonch va muloqot, rag‘batlantirish, loyihaviy faoliyat, “tengdosh-tengdoshga” hamda monitoring va tahlil metodlari bayon etilgan. Shuningdek, ta’lim muassasasida yoshlar uchun yaratilayotgan kasbiy, ijtimoiy va raqamli imkoniyatlar hamda ustozning shaxsiy namunasining tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ustozlik; pedagogik faoliyat; yoshlar bilan ishlash; yoshlar siyosati; ta’lim; tarbiya; individual yondashuv; rag‘batlantirish; loyihaviy faoliyat; kasbga yo‘naltirish; texnikum; yoshlar masalalari.*

Abstract. *The article highlights the author’s nearly twenty-year pedagogical career, from teaching, group leadership and department management to the position of Deputy Director for Youth Affairs. It discusses practical experience in working with young people, supporting their abilities, individual approach, trust and communication, encouragement, project-based activities, the peer-to-peer method, as well as monitoring and analysis. The article also focuses on educational, social and digital opportunities for young people and the educational importance of a teacher’s personal example.*

Keywords: *teaching profession; pedagogical activity; work with youth; youth policy; education; upbringing; individual approach; encouragement; project-based activity; career guidance; technical college; youth affairs.*

Аннотация. *В статье освещается почти двадцатилетний педагогический путь автора: от преподавательской деятельности, руководства учебной группой и заведования кафедрой до должности заместителя директора по работе с молодёжью.*

Рассматриваются опыт работы с молодёжью, поддержка её способностей, индивидуальный подход, доверие и коммуникация, поощрение, проектная деятельность, метод «равный — равному», а также мониторинг и анализ. Особое внимание уделено профессиональным, социальным и цифровым возможностям, создаваемым для молодёжи в образовательном учреждении, и воспитательному значению личного примера педагога.

Ключевые слова: *педагогическая деятельность; работа с молодёжью; молодёжная политика; образование; воспитание; индивидуальный подход; поощрение; проектная деятельность; профессиональная ориентация; техникум; работа с молодёжью.*

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

KIRISH

Har bir insonning hayotida shunday bir kasb bo‘ladiki, u shunchaki ish emas, balki butun umrining mazmuniga aylanadi. Men uchun ana shunday sharafli va mas’uliyatli kasb — ustozlikdir. Qariyb yigirma yildirki, hayotimning eng katta qismi bir dargoh, bir jamoa va minglab yoshlar bilan bog‘liq. Shu yillar davomida men nafaqat tarix fanidan saboq berdim, balki yoshlarning quvonchi, tashvishi, orzusi va kelajagi bilan yashadim. Bugun ortga nazar tashlar ekanman, o‘tgan yillarni oddiy mehnat faoliyati emas, balki katta hayot maktabi sifatida ko‘raman.

Bu yo‘lda o‘qituvchilik, guruh rahbarligi, kafedra mudirligi va bugungi kunda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari sifatidagi faoliyatim bir-birini to‘ldirib kelmoqda. Men uchun ustozlik — faqat dars o‘tish emas. Ustozlik — inson qalbiga yo‘l topish, yoshga to‘g‘ri yo‘nalish berish, uning kelajagiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shishdir.

USTOZLIKKA ILK QADAM

2007-yilda, hali oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan paytimdayoq o‘z faoliyatimni o‘qituvchilikdan boshlaganman. Qo‘qon davlat pedagogika institutining tarix fakultetida tahsil olayotgan kezlarimda olgan nazariy bilimlarimni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati menga katta tajriba berdi. Yosh o‘qituvchi sifatida har bir darsga puxta tayyorlanar, o‘quvchilarning savollariga javob berishga, ularning ishonchini qozonishga harakat qilardim. Vaqt o‘tishi bilan bir narsani chuqur angladim: o‘qituvchi darsda faqat bilim bermaydi. U o‘zining muomalasi, madaniyati, talabchanligi, halolligi va hayotga munosabati bilan ham tarbiya beradi. Shuning uchun yillar davomida o‘zimga bitta tamoyilni mezon qilib oldim: o‘quvchidan nimani talab qilsam, avvalo o‘zim shunga amal qilishim kerak.

GURUH RAHBARLIGI — MAS’ULIYATNING ILK MAKTABI

Faoliyatim davomida bir necha marotaba guruh rahbari sifatida ham ishladim. 2008-yilda elektr energetikasi va montyorlik yo‘nalishidagi guruhga rahbarlik qildim. 2011-yilda buxgalteriya yo‘nalishidagi guruh bilan ishladim. 2014-yilda yana bir buxgalteriya guruhiga rahbar etib tayinlandim. Guruh rahbari bo‘lish orqali men yoshlar bilan ishlashning eng muhim jihatlarini o‘rgandim. Chunki guruh rahbari uchun har bir o‘quvchi alohida taqdir, alohida xarakter va alohida yondashuvni talab qiladi. Kimdir ko‘proq e’tibor kutadi, kimdir rag‘batga muhtoj bo‘ladi, yana kimdir o‘ziga bo‘lgan ishonchini topishi uchun birgina yaxshi so‘zning o‘zi kifoya qiladi. Shu yillar davomida uchta guruh bilan ishladim va qariyb to‘qqiz yil davomida guruh rahbari sifatida faoliyat olib bordim. Bu davr menga bugungi yoshlar bilan ishlashim uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi.

“SHADDOD QIZLAR” — YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANA BIR MAKTABI

O‘sha yillarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qobiliyatini namoyon qilishiga imkon yaratish maqsadida turli tadbir va loyihalarda faol ishtirok etardim.

Ayniqsa, KVN yo‘nalishida tashkil etilgan “Shaddod qizlar” jamoasi bilan ishlash men uchun unutilmas tajribalardan biri bo‘ldi. Jamoa tuman va viloyat miqyosidagi turli tanlovlarda ishtirok etdi. Bu jarayon menga yoshlar bilan ishlashda jamoaviylik, ijodkorlik, mas’uliyat va tashabbusning qanchalik muhimligini ko‘rsatdi.

Bugun yoshlar bilan ishlashda qo‘llayotgan ko‘plab tajribalarimning ildizi aynan o‘sha yillarga borib taqaladi. Chunki yoshlarni faqat nazorat qilish emas, ularga imkon berish kerak.

Ularning ichidagi qobiliyatni ko‘rish, qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri yo‘naltirish — tarbiyaning eng samarali yo‘llaridan biridir.

KAFEDRA MUDIRLIGIDAN KATTA TAJRIBA SARI

2010-yildan boshlab men ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida kafedra mudiri sifatida faoliyat olib bordim. Bu vazifani 2025-yilgacha davom ettirdim. Kafedra tarkibida tarix, huquq, tarbiya, oila va jamiyat bilan bog‘liq fanlar hamda yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib borildi. Kafedra mudiri sifatida men faqat o‘zimning faoliyatim uchun emas, balki jamoaning umumiy natijasi uchun ham mas’ul bo‘ldim. Bu davr menga boshqaruv, jamoa bilan ishlash, vazifalarni taqsimlash, talabchanlik va adolatni birdek saqlash kabi muhim fazilatlarni o‘rgatdi. Men hech qachon lavozim yoki mukofot ortidan quvishga intilmaganman. Men uchun eng muhimi — ishning to‘g‘ri va vijdonan bajarilishi edi. Shu sababli ham hamkasblarim orasida talabchan, prinsipial va adolatni ustun qo‘yadigan inson sifatida tanildim.

BIR DARGOH — MINGLAB YOSHLAR

Qariyb yigirma yillik faoliyatim davomida ushbu dargohda minglab yoshlar bilan ishlash nasib etdi. Yillar davomida o‘rtacha hisobda bir yilda 500 nafarga yaqin o‘quvchi bilan bevosita ishlagan bo‘lsam, shu yillar davomida bu ko‘rsatkich minglab yoshlarning hayotiga daxldor bo‘lgan mehnat faoliyatini anglatadi. Bu raqamlarning o‘zi katta ko‘rinishi mumkin. Ammo ustoz uchun raqamning ortida inson taqdiri turadi. Bugun turli sohalarda faoliyat yuritayotgan, oila qurib, farzand tarbiyalayotgan yoki o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishgan sobiq o‘quvchilarimni uchratganimda, bundan ortiq mukofot kerak emasligini his qilaman. Chunki ustozning eng katta boyligi — uning shogirdlaridir.

O‘QUVCHILAR YUTUG‘I — USTOZNING YUTUG‘I

Faoliyatim davomida o‘quvchilarim turli fan olimpiadalari, tanlov va musobaqalarda tuman va viloyat bosqichlarida ishtirok etib, munosib natijalarga erishishdi. Ayrim o‘quvchilarimiz respublika bosqichigacha yetib borib, kuchli beshlikdan joy olganlari ham bor. Men bunday natijalarni faqat o‘quvchining emas, balki unga bilim va tarbiya bergan ustozlar, ota-onalar va butun jamoaning mehnati natijasi deb bilaman. O‘quvchining birgina yutug‘i ustozning yillar davomida qilgan mehnatini oqlashi mumkin. Shuning uchun ham har bir shogirdning muvaffaqiyati men uchun alohida quvonchdir.

HAYOTNING O‘ZIGA XOS SINOVLARI

Kasbiy faoliyat bilan bir qatorda insonning shaxsiy hayoti ham uning dunyoqarashini shakllantiradi. Men ham hayot davomida turli sinovlardan o‘tdim. 2009-yilda oila qurdim. Oilali bo‘lish bilan birga inson zimmasidagi mas’uliyat yanada ortishini his qildim. 2017-yilda ilk farzandim dunyoga keldi. Undan oldingi sakkiz yil davomida farzand kutish davri men uchun oson kechmagan. Bu davr ichki kechinmalar, sabr va umid bilan o‘tgan yillar bo‘ldi. Ammo ish joyida, o‘quvchilar va hamkasblar oldida men o‘z kayfiyatimni imkon qadar ko‘rsatmaslikka harakat qildim. 2022-yilda ikkinchi o‘g‘lim dunyoga keldi.

Bugun esa, inshaalloh, yana bir farzandni kutish umidi bilan yashayapmiz. Hayotdagi bunday sinovlar menga sabr, shukr va insonni tushunishning qadrini yanada chuqurroq anglatdi.

“O‘QITUVCHILIK NONI” — HALOL MEHNAT RAMZI

Men uchun o‘qituvchilik kasbi nafaqat sharaf, balki hayotimning rizq-ro‘ziga aylangan halol mehnatdir. “O‘qituvchilik noni” degan tushuncha men uchun juda qadrli. Bu nonning ortida darsga tayyorgarlik, o‘quvchi bilan ishlash, hujjatlar, tadbirlar, kechikib uyga qaytish, ba'zan charchoq va eng muhimi — katta mas’uliyat turadi. Shu sababli men o‘qituvchilik kasbiga doimo hurmat bilan qarayman. Chunki ustozning mehnati ba’zan darhol ko‘rinmaydi. Ammo uning natijasi yillar o‘tib, shogirdlarining hayotida namoyon bo‘ladi.

YOSHLAR SIYOSATI — KELAJAK UCHUN STRATEGIK VAZIFA

Bugungi kunda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim olishi, kasb egallashi, bandligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish va ma’naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari ochiqlik va shaffoflik, yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrash hamda barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishdan iborat. “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasi yoshlar siyosatini uzoq muddatli va tizimli asosda rivojlantirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Unda yoshlar bandligi, tadbirkorligi, sifatli va inklyuziv ta’lim, xorijiy tillar, kasbiy ta’lim, volontyorlik, sport va madaniy-ma’rifiy rivojlanish kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalar ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlaydigan har bir rahbar va pedagog zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar yoshga yetib bormasa, ularning amaliy natijasi kutilgan darajada bo‘lmaydi. Shuning uchun yoshlar bilan ishlashda asosiy maqsad — imkoniyatni shunchaki e'lon qilish emas, balki har bir yoshni undan foydalanishga yo‘naltirishdir.

YOSHLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Bugungi O‘zbekistonda yoshlar uchun ta’lim, kasb-hunar, bandlik, tadbirkorlik va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ta’lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari

Yoshlar zamonaviy kasblarni egallash, professional ta’lim olish, xorijiy tillarni o‘rganish va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Bugungi mehnat bozorida faqat diplomning o‘zi yetarli emas. Yosh mutaxassisdan amaliy ko‘nikma, zamonaviy texnologiyalarni bilish, xorijiy tillar va kommunikativ qobiliyat talab etilmoqda. Shu sababli texnikumlarning vazifasi yoshlarni nafaqat kasbga o‘qitish, balki ularni real mehnat bozoriga tayyorlashdan iborat.

Bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari

Yoshlar bandligini ta’minlash dasturlari doirasida yoshlarni ishga joylashtirish, kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, kredit va subsidiya orqali qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilmoqda. Yoshlar uchun tadbirkorlikni boshlash, o‘zini o‘zi band qilish, oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, startap loyihalar yaratish va imtiyozli moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish

yo‘llari kengaymoqda. Bunday imkoniyatlardan foydalanish uchun yoshlar avvalo o‘z qiziqishi va qobiliyatini aniqlashi, kasbiy bilim olishi hamda biznes yuritish asoslarini o‘rganishi zarur.

Ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish imkoniyatlari

Yoshlarning sport, san'at, kitobxonlik, volontyorlik, intellektual tanlovlar va jamoatchilik faoliyatidagi ishtiroki ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bugungi yosh faqat kasb egasi emas, balki faol fuqaro, tashabbuskor shaxs va jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi inson bo‘lib shakllanishi kerak.

Xalqaro va raqamli imkoniyatlar

Xorijiy tillarni bilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, onlayn ta'lim olish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan bog‘liq bilimlar kelajak kasblari uchun muhim omilga aylanmoqda.

KAFEDRA MUDIRLIGIDAN YOSHLAR MASALALARI BO‘YICHA RAHBARLIKKA

2025-yilda faoliyatimda yangi bosqich boshlandi. Men yoshlar masalalari bo‘yicha direktor o‘rinbosari sifatida faoliyat yurita boshladim. Bu vazifa men uchun oddiy lavozim almashinuvi emas, balki katta ishonch edi. Chunki yillar davomida o‘qituvchi va kafedra mudiri sifatida yoshlar bilan ishlagan bo‘lsam, endi ularning ta’limi, tarbiyasi, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy faolligini oshirish va turli tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida yanada katta mas’uliyatni zim-mamga oldim. Bugungi kunda yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuv, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish, kasbga yo‘naltirish, sport, kitobxonlik, vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Men ham o‘z tajribamni zamonaviy imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilmoqdaman.

YOSHLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY METODLARI

Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, avvalo, to‘g‘ri metod va yondashuvga bog‘liq.

Bugungi yosh avlod bilan ishlashda faqat buyruq berish yoki nazorat qilish usuli yetarli emas. Yoshlarni tushunish, eshitish va ularga ishonch bildirish muhim.

1. Individual yondashuv metodi

Har bir yoshning xarakteri, oilaviy sharoiti, qiziqishi va muammosi turlicha. Individual suhbatlar, shaxsiy reja, muammolarni o‘rganish va alohida qo‘llab-quvvatlash yosh bilan ishlashning muhim usulidir.

2. Ishonch va muloqot metodi

Yoshlar bilan samimiy muloqot qilish, ularning fikrini tinglash va hurmat bilan munosabatda bo‘lish zarur. Ochiq suhbat, davra suhbati va “ustoz-shogird” muloqoti katta ahamiyatga ega.

3. Rag‘batlantirish metodi

Yoshlarning kichik yutug‘ini ham e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Faxriy yorliq, tashakkurnoma, jamoa oldida e’tirof etish va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash yoshning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

4. Loyihaviy faoliyat metodi

Yoshlarni tayyor tadbirlarga tomoshabin sifatida emas, balki tashkilotchi va ishtirokchi sifatida jalb qilish kerak. Kitobxonlik klublari, ekologik aksiyalar, kasbiy mahorat tanlovlari, volontyorlik faoliyati va startap loyihalar shular jumlasidandir.

5. “Tengdosh-tengdoshga” metodi

Yoshlar ko‘pincha o‘z tengdoshining fikrini tezroq qabul qiladi. Faol, tashabbuskor va iqtidorli o‘quvchilarni tengdoshlariga namuna sifatida jalb etish samarali usullardan biridir.

6. Monitoring va tahlil metodi

Yoshlar bilan ishlash faqat tadbir o‘tkazish bilan baholanmasligi kerak. Har bir ishning natijasi tahlil qilinishi lozim: qancha yosh qamrab olindi, nechta yosh kasbga yo‘naltirildi, nechta yosh ishga joylashdi va qanday muammolar hal qilindi.

YOSHLAR BILAN QANDAY ISH OLIB BORISH KERAK?

Yoshlar bilan ishlashda tizimlilik eng muhim omildir. Birinchi bosqich — yoshlarni o‘rganish. Avvalo har bir guruh va har bir yosh haqida ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Ikkinchi bosqich — muammolarni aniqlash. Individual suhbatlar, guruh rahbarlari bilan hamkorlik, ota-onalar bilan muloqot va psixologik kuzatuvlar orqali muammolar aniqlanadi. Uchinchi bosqich — aniq reja ishlab chiqish. Har bir yo‘nalish bo‘yicha yillik, oylik va haftalik rejalar tuziladi.

To‘rtinchi bosqich — yoshlarni faol ishtirokchi qilish. Tadbirlar va loyihalarni yoshlarning o‘zi bilan birgalikda tashkil etish zarur. Beshinchi bosqich — natijalarni baholash. Har bir amalga oshirilgan ish bo‘yicha natijalar tahlil qilinadi.

BUGUNGI TEXNIKUM — YANGI IMKONIYATLAR MASKANI

Bugun ta’lim muassasamiz yangi bosqichni boshdan kechirmoqda. Texnikumda yoshlarning zamonaviy kasblarni egallashi, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun imkoniyatlar kengaymoqda. Avtoservis, tikuvchilik, sotuvchi-kassir, maishiy texnika xizmatlari, sartaroshlik, oshpazlik, payvandlash, elektr jihozlari bilan ishlash, kompyuter grafikasi va dizayn kabi yo‘nalishlar yoshlar uchun muhim kasbiy imkoniyatlar yaratmoqda. Men yoshlar masalalari bo‘yicha rahbar sifatida bir narsani yaxshi tushunaman: har bir yoshning qiziqishi va qobiliyati turlicha. Kimdir oliy ta’limga intiladi. Kimdir hunar egallab, mehnat faoliyatini boshlashni xohlaydi. Yana kimdir sport yoki ijodda o‘zini namoyon qiladi. Bizning vazifamiz — ularning barchasiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish.

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA USTOZNING O‘RNI

Yoshlar bilan ishlashda eng katta kuch — bu ustozning shaxsiy namunasi. Yoshlar ko‘proq ko‘rgan narsasiga, amalda namoyon bo‘lgan munosabatga ishonadi. Agar ustoz intizomli bo‘lsa, yosh ham intizomni o‘rganadi. Agar ustoz kitob o‘qisa, yosh kitobga qiziqadi. Agar ustoz halol va adolatli bo‘lsa, yosh ham shu qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Shuning uchun yoshlar bilan ishlaydigan har bir pedagog o‘zini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak.

MUKOFOTDAN KO‘RA ISHONCH MUHIM

Faoliyatim davomida turli tashakkurnomalar, faxriy yorliqlar va e’tiroflarga sazovor bo‘ldim. Albatta, har qanday mehnatning qadrlanishi insonni quvontiradi. Lekin men uchun eng katta mukofot — o‘quvchining: “Ustoz, sizdan o‘rganganman”, degan so‘zidir.

Chunki qog‘ozdagi mukofot vaqt o‘tishi bilan saqlanib qolishi yoki unutilishi mumkin.

Ammo shogird qalbida qolgan yaxshi nom inson bilan birga yashaydi.

BUGUN ORTGA QARAB...

Bugun qariyb yigirma yillik faoliyatimga nazar tashlar ekanman, ortda qolgan yillar davomida ko‘p narsalar o‘zgarganini ko‘raman. Ta’lim tizimi o‘zgardi. Muassasaning nomi va maqomi o‘zgardi. Kasblar va texnologiyalar yangilandi. Ammo bir narsa o‘zgarmadi: yoshlar bilan ishlashga bo‘lgan mas'uliyat. Kecha men tarix fanidan dars bergan o‘quvchilar bugun turli sohalarda mehnat qilmoqda. Kecha guruh rahbari sifatida tarbiya bergan yoshlar bugun o‘z farzandlarini tarbiyalamoqda. Bu — ustozlikning eng katta davomiyligidir.

KELAJAKDAGI MAQSADLARIM

Men hali yo‘lning oxiriga kelganim yo‘q. Oldinda yangi maqsadlar, yangi rejalar va yangi vazifalar turibdi. Yoshlar bilan ishlashda zamonaviy va samarali tizim yaratish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va muammoli vaziyatga tushib qolgan yoshlar bilan individual ishlash — kelgusidagi asosiy vazifalarimdan biridir. Men yoshlar bilan ishlashni faqat tadbirlar tashkil etish deb tushunmayman. Yoshlar bilan ishlash — ularni eshitish. Ularning fikriga hurmat bilan qarash.

Muammosini vaqtida sezish. Qobiliyatini ko‘rish. Xatosini to‘g‘ri tushuntirish. Yutug‘ini esa munosib rag‘batlantirish. Eng muhimi, har bir yoshga “Sen ham qobiliyatli bo‘lishing, katta natijalarga erishishing mumkin”, degan ishonchni bera olishdir.

XULOSA

Qariyb yigirma yil... Bu bir qarashda oddiy vaqt o‘lchovi. Ammo inson hayotida bu katta bir davr. Men bu yillarni bitta dargohda, ta’lim va tarbiya yo‘lida, minglab yoshlar bilan birga o‘tkazdim. Bu yo‘lda quvonch ham bo‘ldi, qiyinchilik ham. Muvaffaqiyat ham bo‘ldi, sinov ham.

Lekin hech qachon ustozlik kasbidan afsuslanmadim. Chunki men bu kasb orqali nafaqat boshqalarga bilim berdim, balki o‘zim ham ko‘p narsani o‘rgandim. Yoshlar menga sabrni o‘rgatdi. O‘quvchilar menga mas’qbo‘o‘uliyatni o‘rgatdi.

Hayot menga shukr qilishni, Oila menga bardosh va mehrni, Ustozlik esa menga inson bo‘lib qolishning qadrini o‘rgatdi. Bugun direktor o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritayotgan bo‘lsam-da, o‘zimni avvalo ustoz deb bilaman.

Chunki rahbarlik — ishonch. Ustozlik esa — hayotimning qariyb yigirma yilini mazmun bilan to‘ldirgan yo‘l. Mening eng katta boyligim — shogirdlarim.

Mening eng katta mukofotim — ularning yutug‘i.

Mening eng katta maqsadim — yoshlarning kelajagiga oz bo‘lsa-da munosib hissa qo‘shish. Va oldinda hali qilinadigan ishlar ko‘p. Inshaalloh, bu yo‘lni bundan keyin ham halol mehnat, sabr, adolat va yoshlar kelajagiga bo‘lgan ishonch bilan davom ettiraman. Zero, yoshlar kelajagi bilan ishlash — bugunning emas, butun avlodlar kelajagining mas'uliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-406-son, 14.09.2016.

2. “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasi. 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiya.
3. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi — rasmiy veb-sayti va yoshlar siyosatiga oid materiallar.